

SHAXS RIVOJLANISHINING INDIVIDUALLIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING ROLI

Xaydarova Sayyora Chinaliyevna

Guliston davlat universiteti

pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Qo'chqorova Zulfizar Sharofjonovna

Guliston davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7889224>

Annotatsiya: Shaxs rivojlanishining individuallik xususiyatlari murakkab xususiyatga ega bo'lib, shaxsning har bir xususiyatlari individualdir. Ushbu maqolada shaxs va uning individual xususiyatlari, shaxsning individual sifatlari va uning psixologiyasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, individuallik, psixologiya, individ, differensial, xulq-atvor, yondashuv.

Ma'lumki, shaxs va uning o'ziga xosligi, individualligi muammosi hozirga qadar umumiy psixologiya, differensial psixologiya, shaxs psixologiyasi kabi fanlarning bahsbop va qiziqarli mavzusi sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Bizningcha, individuallik shaxsning xulq-atvor sifatlari, xarakter sifatlari va ularning dinamikasi, oliy nerv sistemasini va uning namoyon bo'lish xususiyatlari kabi masalalarni mazmunan ifodalab, shaxsni tadqiq etishning o'ziga xos yondoshuvini nazarda tutadi.

Individuallik tushunchasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, «individuum» ya'ni «bo'linmas» degan ma'noni anglatadi. Individuallik har bir insonning o'ziga xos psixik xususiyatli ko'rinishi bo'lib, u o'zining hayoti va faoliyati davomida shaxsda subyekt sifatida ishtirok etadi va ijtimoiy- tarixiy madaniyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. U inson psixikasining betakror qobiliyati va ehtiyojining o'zlashtirishida bir butunlik va yagonalik jarayonlari orqali aniqlanadi. Faqatgina faoliyat jarayonida u jonli narsalar bilan munosabatga kirishish tufayli shakllanib boradi. Aynan individuallik madaniyatning qaytarilmas ifodalovchisi bo'lib qoladi.[3]

Shaxsning psixologiya fanining asosiy ilmiy tushunchalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shaxsning nimaligini tushunish va uning ruhiy tuzilishini ta'riflash imkonini beruvchi asosiy xossalarni ajratib olish uchun ushbu tushunchani «inson individ shaxs individuallik» qatorida ko'rib chiqamiz.

Inson o'ta murakkab mavjudot sifatida cheksiz murakkab dunyoda, aniqrog'i, ko'plab dunyolarda yashaydi, ularning ichidan zamonimizning mashhur faylasuflaridan biri Yurgen Xabermas asosiylari sifatida uch dunyoni: tashqi dunyo, ijtimoiy dunyo («bizning olam»), ichki dunyo («mening olamim», individuallik va betakrorlik «mening mavjudligimning» betakrorligi) ajratishni taklif etdi.

Tashqi dunyo bu insonning tabiat qonunlarini bilishda va ularni o'z maqsadlarida tabiatni qayta tuzish uchun qo'llashda egallaydigan tabiat olami. Bu fan, texnika, amaliyot olamidir. Bu barcha narsa isbot talab etuvchi maqsadga muvofiq faoliyat olamidir.

Ijtimoiy dunyo bu insonni dunyoga kiritishning asosiy vositasi jismli faoliyat bo'lgan olam. Insonni atrofdagi olamga va o'ziga nisbatan munosabatlarining rang-barangligida tushunish, faolligining manbalarini topish va yo'nalishini anglash uchun insonning olamda tutgan o'rnini aniqlab olish zarur. Insonga shaxs sifatida yondoshish, avvalambor, insonga jamiyat tuzilishida tutgan o'rnini bilan aniqlanuvchi jamiyatning birligi sifatida qarash bilan bog'liqdir. Insonni biologik organizm, tur birligi sifatida hayvondan farq qiluvchi tub negizli belgisi

jamiyatga tegishlilik, ijtimoiylik hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, shaxsni o'rganishda dastlabki holat bo'lib uning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritilganligi xizmat qiladi.

Agar biz shaxs munosabatlari haqida insonning dunyoga shaxsiy tegishliliigi va bu bilan bog'liq kechinmalar ma'nosida so'z yuritadigan bo'lsak, u holda inson mavjud bo'la oladigan keyingi bu «mening» ichki olamim dunyosigamurojaat qilamiz. Bu dunyo kechinmalar, shaxsiy mohiyatlar, shaxsiy dahldorlikni his etish, u yoki bunga shaxsiy tegishlilik, boshqa odamlar bilan mavjudlikning «hodisaviyligi» bilan to'la. Bu dunyoga jismli faoliyat o'z shaklini o'zgartirgan holda oddiy holatdagi foydali faoliyat, shaklini yo'qotgan jismli harakat bo'lib emas, balki, «shaxsiy» faoliyat, ijodiyot sifatida kiradi, ijtimoiy hulq-atvorea «mening» dunyosiga shaxslararo munosabat, boshqa odamlarning ichki dunyosiga yaqinlashish, boshqalarga o'zini ochishning vositasi, o'zini namoyon etish sifatida kirib keladi.

Shaxs tushunchasining mohiyatli tomonlarini belgilab beruvchi turli xil ta'riflar mavjud. A.N. Leontev ta'rifigako'ra: «Shaxs faoliyat sub'ekti», A.G. Kovalevning «shaxs ijtimoiy munosabatlar sub'ekti va ob'ekti sifatida», K.K. Aflotunovning «shaxs o'z o'rnini anglovchi layoqatli jamiyat a'zosi», S.L. Rubinshteynning «shaxs tashqi ta'sirlarning oldini oluvchi ichki sharoitlar yig'indisi», A.V. Petrovskiyning «shaxs individ tomonidan jismli faoliyat va muloqotda orttirilgan, unga ijtimoiy munosabatlarga kirishganlik nuqtai nazaridan ta'rif beruvchi tizimli sifat», G. Ollportning «shaxs hayoti davomida shakllanib boruvchi o'ziga xos psixofixiologik tizimlar ushbu insonga xos bo'lgan tafakkur va hulq-atvorni belgilab beruvchi shaxs qirralari yig'indisi» va boshqalarning ta'riflari shulardan iborat.[4]

Bizlar esa R.S. Nemov tomonidan shaxsga berilgan ta'rifni qo'llaymiz: «Shaxs bu ijtimoiy asoslangan, ijtimoiy tabiatga ega bo'lgan aloqalar va munosabatlarda namoyon bo'ladigan, barqaror, odamning o'zi va atrofida uchun ahamiyatli bo'lgan ahloqiy harakatlarni belgilab beruvchi o'zining psixologik xususiyatlari tizimidagi inson».

Shunday qilib, inson, birinchidan, tirik tabiat vakili, biologik ob'ekt sifatida, ikkinchidan, ongli faoliyat sub'ekti sifatidava, uchinchidan, ijtimoiy mavjudot sifatida o'rganilishi mumkin, bu uch darajaning yaxlit uyushmaga birlashishi insonning yig'indi xususiyatlarini uning individualligini shakllantiradi.[2]

Individuallik– bu ma'lum insonning, uning noyoblighi, betakrorligi nuqtai nazaridan o'ziga xos bo'lgan ruhiy, fiziologik va ijtimoiy xususiyatlar yig'indisi.

Individuallik– bu ko'rib chiqilgan tushunchalar ichida mazmuniga ko'ra eng tor tushuncha hisoblanadi. U o'zida insonning boshqa odamlardan farq qiluvchi o'ziga xos va shaxsiy xossalarini jamlaydi. Individuallik turli xildagi tajriba, bilimlar, fikrlardagi tafovutlar, xarakter va temperamentlardagi farqlar, o'zimiz isbotlaydigan, tasdiqlaydigan o'ziga xos xususiyatlarimizda namoyon bo'ladi. Motivlar, temperament, xarakter, layoqatlar individuallikning asosiy ko'rsatkichlari. «Individuallik» tushunchasi individning faqat o'ziga xos ruhiy xususiyatlarini emas, balki morfofiziologik (bo'y o'lchami, tana tuzilishi, yuz tuzilishi va h.k.) xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Individuallik o'z mohiyatiga ko'ra, boshqalar tomonidan kuzatilishi mumkin bo'lgan, tashqarida joylashgan narsa. Faqat boshqalar bir odamning boshqasidan farqini, ya'ni, uning individualligini aytib berishi mumkin.[1]

Individualism giving priority to one's own goals over group goals and defining one's identity in terms of personal attributes rather than group identifications.

Munosabatga kirishish uchun zarur boʻlgan vositalar qatoriga predmetni, forma (shakl)larni, tilni, bilimni, aqlni va boshqalarni kiritish mumkin. Shaxsning ana shu jihatlari uning individualligini koʻrsatadi.

Inson haqidagi taʼlimotni boshqa bir manbai boshqa aralash fanlarning yutuqlari edi: bioximiya, psixofiziologiya, sotsialpsixologiya. Bu tadqiqotlarda individuallikning xususiyatlari oʻrganilib, boshqa alohida fanlarda bunchalik toʻliq yoritilmaydi. Bu tadqiqotlar natijasida yangi tizimli qarash va umumiy nazariya yordamida tartiblararo aloqada har qanday reduksionizmni tushuntirishga yordam berdi. Misol uchun: differensial psixologiyada, psixofiziologiyada insonning psixik xususiyatlarini, asab tizimi xususiyatlaridan ajratish yoki sotsial psixologiyada shaxs xususiyatlarini; shaxslararo munosabatlardan ajratish kabilar.

Inson individualigiga taalluqli boʻlgan barcha amaliy masalalarni hal qilishda somatik xilma-xillikni nerv fiziologik, umumiy psixologik va sotsial psixologik individual xususiyatlarni va ularning oʻzaro bogʻliqligini inobatga olish kerak.

Insonning yuqori ierarxik darajasi va shaxslararo munosabatlar tipik hamda sotsial - tipik darajalaribor. Sotsial - tipik shaxsiy xususiyatlari va shaxslararo munosabatlar sotsial qonuniyatlar rivojlanishiga asoslanadi. Shaxsning sotsial tiplari va individual integral xarakteristikasining bogʻliqligi ikki taraflamadir.[2]

Birinchidan shaxsning sotsial tipik xususiyatlari inson faoliyatida integral individuallik orqali amalga oshadi. Uning yaqqol koʻrinishini biz faoliyatdagi individual stilda koʻrishimiz mumkin. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, individual stil barcha kerakli darajalardagi individual xususiyatlarga asoslanadi: asab tizimi xususiyatlari, temperament, shaxs xususiyatlari, sotsial status. Shu maʼnoda individual uslub individuallikning integral xarakteristikasini tushuntiradi.

Individual uslub peshqadam ishchilarda, bilimga chanqoq oʻquvchilarda yaxshi koʻrinadi. Faqat aktiv munosabatlar orqali inson faoliyati uslubini yaratadi va shu orqali individullikni integralligini mos kelishi, kelmasligini aniqlaydi.

Ikkinchidan individuallik ierarxik darajasi sotsial-tipik sharoitlarsiz vujudga kelmaydi. Bioximik individuallikda qondagi steroitlarni koʻpayib ketishi iqtisodiy va siyosiy xayotdagi sotsial - tipik stresli xolatlar bilan bogʻliqdir. Shuning uchun individual integrallik xar xil sotsial tiplarga bogʻliqdir.

A.D.Erashenko tadqiqotlarida shaxs xususiyatlari va sotsial status bogʻliqligini oʻrgangan.

Koʻrib chiqilgan faktlardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin.

1)individuallik integral xususiyatlar orasida hamma katta tizimlardagidek matematik tiplar mavjud.

2) Xususiyatlar har xil individual integrallardagi ierarxik darajaga taalluqlidir:

- a) asab tizimiga (neyrodinamik);
- b) temperamentga (psixodinamik);
- v) shaxslikka;
- g) guruxdagi va kollektivlardagi sotsial muhitga.[4]

Ierarxik darajalar koʻpqirralik kriteriyasiga qarabgina emas boshqa kriteriyalarda ham aniqlanadi. Quyi ierarxik darajani biz yuqori daraja qismi qarash mumkin.

P.K.Anoxin asab tizimida neyronli darajani, neyronlar populyasiyasi darajasini aniqlagan. Yoki B.G.Ananov fikricha quyi ierarxik daraja yuqorisiga qaraganda genetik yoki funksional taraflama qaralib birlamchi hisoblangan.

Individual integral darajadagi biz ajratgan xususiyatni, shaxsning neyrodinamik, psixodinamik xususiyatlari va sotsial statuslari bilan taqqoslab bir-birisiz boʻlmaydi deb ayto olmaymiz. Bir darajaga xos xususiyatni boshqa bir daraja xususiyatlaridan chiqarib oʻlmaymiz.

Koʻp ahamiyatli aloqalar natijasida ierarxik darajalarda maʼlum bir ochiqlik va yopiqlik darajasiga erishadi. L.Bertalanfi va R.Eshbi lar aytishicha bunaqa katta tizimlar obyektiv sharoitimiz oʻzgaruvchanligini va koʻplab oʻzini rivojlantirish va oʻzaro boshqarishni taʼminlabberadi. Qaysidir ierarxik darajadagi bir xil xususiyatlar oʻzgarib turuvchi aloqa yoki sharoitlardan boshqa darajalar bilan har xil funksiyalarni bajarishi mumkin.

Shunday qilib har xil xususiyatlar oʻrtasida kompensator munosabatlari oʻrnatiladi. Koʻp yillik differensial psixofiziologiya ishlarida biz insonni asab tizimi tipi xususiyatlari va faoliyatga boʻlgan munosabatida, faoliyatning individual stil tipologiyasiga asoslanadi. Agar inson unchalik effektiv boʻlmagan va uning tipologik xususiyatiga toʻgʻri kelmaydigan operatsiyalar tizimini qoʻllasa bunda asab tizimi xususiyatini faoliyatga va faoliyat ijobiy munosabatni taʼsirlari orasida kelishmovchilikni yuzaga keltiradi. Asab tizimi faoliyati faoliyatga ijobiy munosabatni amalga oshirishga toʻsiq boʻlib qoladi.[3]

Inson individualligining etilishiga, rivojlanishiga taʼsir koʻrsatuvchi omillarning koʻp qirraliligini hisobga olgan xolda V.S.Merlin bu tushunchani aniqroq ifodalash uchun «integral individuallik» atamasini kiritdi. Syu bilan birga u individuallik tushunchasida barcha tabiiy va ijtimoiy xususiyatlar integratsiyasini koʻrsatib oʻtdi.

Bunday yondoshishga koʻra, inson individualligi bu uzluksiz tashqi va ichki

Oʻzgarishlar sharoitida oʻz yaxlitligi va oʻz-oziga oʻxshashlikni saqlab qoluvchi, yakka bita odamning aloxida turmush shakli (tarzi) boʻlib, u turmush tarzi doirasida muxtor sifatida, yakka va betakror biosistema (tabiiy-ijtimoiy tuzilma) tariqasida yashaydi va saʼyi-harakat qiladi. Bu borada V.M.Bexterevning bir fikrini eslab oʻtish joizdir; «Shaxs har doim va har erda biosotsial sharoitlarning maxsulidir».

Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi juda murakkab jarayondir. Inson psixologlar taʼkidlaganidek biosotsial mavjudotdir. Shunday ekan differensial psixologiya inson individualligining shakllanishida biologik va ijtimoiy omillarning oʻrnini tadqiq etishda psixik rivojlanish sharoitlarini tahlil qilishning ilmiy asoslariga tayanadi. Biologik va ijtimoiy omillar birligi bir tomondan kishining psixik tugʻma ravishda tashkil topgan xususiyatlari masalan, koʻrish yoki eshitish sezgilarining shuningdek oliy nerv tuzilishining oʻziga xosligi, ikkinchi tomondan esa faoliyatning ongli subyeksi va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvorlarida masalan, axloqiy odatlar, xususiyatlarida namoyon boʻladi.[5]

Individual psixologik xususiyatlarning tarkib topishi va rivojlanishi muammosi oʻz mohiyati jihatidan gʻoyaviy xarakterga ega. Shu bois bu muammoni xal qilishda psixologiyada bir biriga zid baʼzan esa bir-birini toʻldiruvchi oqimlar yoʻnalishlar yuzaga kelgan. Shulardan biri

biogenetik konsepsiya bulsa ikkinchisi sotsiogenetik konsepsiya hisoblanadi. Individual psixologik xususiyatlarning tarkib topishini biologik tabiiy tug`ma omillarga bog`lab tushuntiruvchi biogenetik konsepsiya XXI asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan. Hozirgi kunga qadar ham individual xususiyatlarning tug`ma tabiati haqidagi ta`limot psixologiya maktablari asosini tashkil etmoqda.

Shunday qilib, bizlar korib chiqqan «odam, individ, shaxs va individuallik» tushunchalari hajmiga ko`ra turlichadir. Bular orasida keng ma`no kasb etib, boshqa tushunchalarni ham o`zida joetadigan tushuncha «inson» atamasidir, eng tor atama esa «individuallik» tushunchasi.

References:

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2012. 176 b.
2. Karimova V M., Sunnatova R. «Mustaqil fikrlash» o`quv qo`llanmasi bo`yicha mashg`ulotlarni tashkil etish uslubiyoti.-T.: Sharq, 2000.- 16 b
3. G`oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1-2 kitob
4. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014 г. С.-.378-419
5. SafayevN.S., Mirashirova N.A. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”TDPU, 2013 y, B.160-182.
6. Ganiyeva, M. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPING THE LOGICAL THINKING OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS (IN MATHEMATICS LESSONS). Science and innovation, 2(B3), 30-33.